



## “YANGI KONSTITUTSIYADA TA'LIM TIZIMI XUSUSAN HUQUQSHUNOSLIK FANLARI O'QITISH TIZIMI”

**Alimbetova Raygul Nasratdiyovna**

O'zbekiston Respublikasi IIVning Qoraqalpoq akademik litseyi  
Huquqshunoslik fani oqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14898049>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-yanvar 2025 yil  
Ma'qullandi: 12-yanvar 2025 yil  
Nashr qilindi: 20-yanvar 2025 yil

### KEY WORDS

Demokratiya, huquq, davlat, erkinlik, himoya qilish, jamiyat, kafolat, O'zbekiston, Konstitutsiya, mamlakat, islohot, qonunchilik,

### ABSTRACT

*Maqolada huquqshunoslik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularni qo'llashning muhimligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va o'quv mashg'ulotlarini samaradorligiga erishish pedagogik texnologiyalarga qanchalik bog'liqligi keltirilgan. Konstitutsiyada inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini qay darajada mustaxkamlanganligi masalasi, davlatimiz asosiy qomusini isloh etish va unda inson huquqlarining o'rne borasida so'z yuritildi.*

Insoniyat rivojlangan dunyoda yashar ekan, hamisha erkinlik va o'z huquqlarini ta'minlanishiga intilib kelgan. Tarixda adolatli davlat haqida qarashlar bayon etilgan asarlar bisyor. Ayrim davlatlar tarixiy kurashlar natijasida mamlakatda inson huquqlarini himoyasini ta'minlovchi qonunlarga ega bo'lganlar. Jumladan, antik davlatlardagi 12 jadval qonuni, Angliyada erkinlik xartiyasi, Fransiyada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari Dekloratsiyasi va boshqa shu kabi inson huquqlari bilan bog'liq qonunlarni misol keltirish mumkin.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning «Qayerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha yerda erkinlik bo'ladi», - degan o'giti sharqona huquqiy davlat qurishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bu hikmat bugun ham o'ziga xos ma'no kasb etmoqda. Tarixning yangi davri konstitutsionalizm davri bo'lib, davlatlarda inson huquqlarini ta'minlash vositasi ushbu normada aks etgan. Hozirgi dunyoda inson huquqlari yetakchi o'rinni egallashi umume'tirof etilgan dalildir. Inson huquqlari masalasining har qanday sivilizatsiyalashgan, adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdagi rolini kamaytirib bo'lmaydi. Demokratik, huquqiy davlat qurishning bosh sharti asosiy huquq va erkinliklarni rag'batlantirish va himoya qilish hamda jamiyatda har bir insonning huquqlarini kafolatlashning haqiqiy tizimini yaratish hisoblanadi, deydi akademik A.Saidov.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi. Mustaqil davlatimizni rivojlantirish istiqbollari har tomonlama bilimli, yoshlar qo'lida bo'lib, bu ulardan yuksak huquqiy ong va huquqiy

madaniyatga ega bo'lish huquqni puxta bilishni talab qiladi. Huquqiy bilim berish orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi va huquqiy ong shakllantiriladi.

O'quvchi-yoshlarga huquqiy bilim berish, ularda milliy huquq tizimi to'g'risida tasavvur uyg'otish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini anglash, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini yuzaga keltirishda ta'lim muassasalarining hamda biz pedagoglarning o'rni alohida mazmun kasb etadi. Ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan huquqiy ta'limning asosiy maqsadi aynan bir vazifa, o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning qonun va qoidalarga itoatkorlik bilan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Bu o'rinda har bir darsga alohida yondoshgan holda, o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishning ilg'or usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. "2017-2021- yillar harakatlanish strategiyasi" da Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta'lim tizimini, ayniqsa huquqiy tizimni rivojlantirish orqali aholi hiqiqiy ong va madaniyatini yuksaltirishga erishish zarurligi, buning uchun ta'lim tizimida islohatlarni yanada chuqurlashtirish haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Huquqiy ta'limni inovatsion metodlar vositasida tashkil etish orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Umumta'lim maktablarida huquqiy ta'limni samaradorligini oshirish orqali o'quvchilarni mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlanish, hayotiy maqsadni belgilay olish, ma'naviy-axloqiy xulq-atvorini takomillashtirish, kasbiy faoliyat yo'nalishini belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishga erishish mumkin. O'quvchilar ongiga ijtimoiy munosabatlarning huquqiy me'yorlarni singdirish, ularni nobaqbul hatti-harakatlar sodir etishdan himoya qiluvchi mezonlar ekanligi haqida tasavvur hosil qilish, o'quvchilarda quyidagi holatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi:

1. Yoshlarda huquqiy me'yorlar, qonunlarning nafaqat davlat, balki shaxs manfaatlarini birdek himoya qilishiga nisbatan ishonchning shakllanishiga erishish;
2. O'quvchilarni huquqqa oid bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj va qiziqishining yuzaga kelishini ta'minlash;
3. O'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, qonunlarga nisbatan hurmat va itoatkorlikni qaror toptirish;
4. O'quvchilarda har qanday ko'rinisdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish tuyg'usini tarbiyalash;
5. O'quvchilarda ijtimoiy -huquqiy madaniyat va faollikni qaror toptirish;

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarni qiziqishini orttirish, ularning ta'lim jarayonida faolligi mustaqil rag'barlantirib turilishi, o'quv materiallarini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularni mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loixa, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidanyoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat beradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini

yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi.

Hammamizga ma'lumki, Konstitutsiyamizda jami moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, bundan tashqari qat'iy belgilangan normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va normalar yangilandi va mustahkamlandi. Konstitutsiyada barcha sohalarga oid asosiy normalar takomillashtirildi, jumladan kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohasiga bir qator yangi normalarda davlat tomonidan majburiyatlar olishi belgilanmoqda.

Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari va mas'uliyati ko'paytirildi. Ta'kidlash lozimki, Yangi tahirdagi Konstitutsiya orqali ta'lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o'qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldilar. Ta'lim-tarbiyaga qaratib kelinayotgan e'tibor va mamlakat taraqqiyotining garovi va kafolati hisoblanadi.

Ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Konstitutsiyada ijtimoiy davlatga xos bo'lgan qarashlar va yondashuvlar ta'lim sohasiga oid ko'plab modda va normalarda ham o'z ifodasini topmoqda. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshmoqda.

Konstitutsiyaning 50-moddasida ta'kidlanadki, har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur moddada nodavlat ta'lim muassasalariga ham e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni davlat tomonidan nodavlat ta'lim muassasalari uchun ham rivojlanishi kafolatlanmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi.

Ushbu Konstitutsiyada umumiy o'rta ta'lim majburiy ekanligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida bo'lishi va ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi ta'kilab o'tilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Konstitutsiyada fuqarolarning oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu bilan davlat granti kelgusida ham mavjud bo'lishi qat'iy norma bilan belgilab qo'yilmoqda. Asosiy qonundayoshlarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilanmoqda. Bu yoshlarni qo'llab quvvatlar va ularning ta'lim jarayoniga jaob etishning huquqiy asoslari hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, nogironligi bor bolajonlarga ham o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko'zda tutildi. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inklyuziv ta'lim sifatida Konstitutsiyaga kiritildi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan бۇлади. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy

nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi .

Konstitutsiyada belgilanayotgan eng muhim normalardan biri, davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi barcha o'qituvchilarning professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etildi.

Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqoridagilarga ko'ra ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuqori bosqichga ko'tarishda ta'lim sohasini ham muhim o'rin tutadi. Ta'lim va tarbiya masalasi har qanday jamiyat va davlat rivojining pirovard yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ta'lim sohasining huquqiy jihatdan Asosiy qonunimizda mustahkamlanishi buning isbotidir.

O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, albatta bunda birinchi navbatda fan, mavzu, o'quvchilar yoshi, kasbiy yo'naltirilganligi va shu kabi bir necha jihatlarga e'tibor berishi kerak. Masalan VIII-sinf " Davlat va huquq asoslari" darsligidagi "Jamiyat", "Davlat" mavzularini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan: " Muammoni hal qilish texnologiyasi" dan foydalanishimiz mumkin. Muammoni hal qilish uslubi – muammoni aniqlash va uni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishga o'quvchining tayyorgarligini tekshirib ko'rish uchun qo'llaniladi. O'quvchi bunda birinchi bo'lib muammoni aniqlab oladi. So'ngra muammoni yechish uchun axborotlarni izlaydi. Izlanish chog'ida kerakli jurnallar, monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalardan foydalanish mumkin. Bu bilan o'quvchi olgan ma'lumotlaridan xulosa chiqarishi va uni amalda tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'tish orqali o'quvchilarda qonunlar, yuridik adabiyotlar bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmsini shakllantirish, ularni erkin fikrlash mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikrini bildira olish, mavzuni nazariy jihatini xolisona ilmiy taxlil etish xususiyatlarini rivojlanishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M „ Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quram-iz.-T.:”O'zbekiston”2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harahatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli farmoni
3. WWW.uzedu.uz
4. X.T.Odilqoriyev “ Davlat va huquq nazariyasi ”